

**O'ZBEK AYOLLARINI TIMSOLIDA TALABA QIZLARDA MILLIY FAZILATLARNI
RIVOJLANTIRISH**

Usmonova Qumrinsa Saidaliyevna

Boshlang'ich ta'lif fakulteti o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ibragimova Yulduzdu Abdumalik qizi

Zoirova Setora Jahongir qizi

Boshlang'ich ta'lif fakulteti

2-kurs talabalari Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek ayollarining fazilatlari, mehnatkashliklari kabi qator yaxshi odatlari yoritib berilgan. O'zbek ayollari timsolida esa talaba qizlarning milliy fazilatlari, tarbiyalari va yaxshi odatlarini rivojlantirishda ko'zda tutilayotgan bir qator masalalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Ayol, timsol, talaba, milliy tarbiya, ona, jamiyat*

Аннотация: В данной статье выделен ряд хороших привычек узбекских женщин, таких как добродетель и трудолюбие. В образе узбекских женщин описан ряд вопросов, предусмотренных в развитии национальных качеств, воспитания и хороших привычек студенток.

Ключевые слова: Женщина, символ, студент, национальное образование, мать, общество

Abstract: *This article describes a number of good habits of Uzbek women, such as virtues and hard work. In the image of Uzbek women, a number of issues envisaged in the development of national qualities, upbringing and good habits of female students were described*

Keywords: *Woman, symbol, student, national education, mother, society.*

Ayol deganda ko'z oldimizga eng avvalo, mo'tabar onamiz, qadrli buvijonlarimiz, munis opa-singillarimiz keladi. Ularga qancha mehr bersak, shuncha oz. Dunyoda shunday bir zot borki, uni har kuni e'zozlasak ham, dillarini xushnud qilishga urinsak ham uning haqqini ado eta olmaymiz. Bu mo'tabar zot onadir. Chindan ham ayolni, onani e'zozlash, unga ehtirom ko'rsatish o'zbek xalqiga xos oliyanob xususiyatlardan biri. Shu ma'noda yurtimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik ishlar amalgalashmoqda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti xotin-qizlarga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bog'liq. Davlatimiz rahbari tomonidan so'nggi yillarda jamiyatda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlari, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rirlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini

yaxshilash masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Prezidentimizning 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi “**Xalqimiz azal-azaldan Ona siy whole, Ayol zotini Yaratganning ulug‘ ne’mati, tengsiz mo‘jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi**”, degan xitoblari bejiz emas. Zero, Qur’oni karimda “Niso” (Ayollar) nomi bilan alohida sura nozil qilingan bo‘lib, unda meros va ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgani dinimizda ularning ehtirom qilinganini ko‘rsatib beradi. Ayollar muqaddas dinimizda ona, opa-singil, jufti halol va qiz sifatida hurmatlanib, ayol kishiga latofatli xilqat, ibo va xayo timsoli sifatida qaralgan. Bejizga Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) “**Jannat – onalar oyog‘i ostidadir**”, deb marhamat qilmaganlar. Yurtimizda gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishini ta’minlash borasida ham mutlaqo yangi yo‘nalishlar asosida faoliyat yo‘lga qo‘ylgan. Gender masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlari qatoridan o‘rin olgan. Ayni paytda O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasida qizlarimizning ta’lim olishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Talaba-qizlarni ma’naviy barkamol, g‘oyaviy kurashchan, millat va davlatning barqarorligi hamda taraqqiyoti yo‘lida o‘z kuchini ayamaydigan, milliy qadriyatlarni ulug‘lab, ma’naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan insonlar qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatning taraqqiy topishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatdagi yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tiborga chambarchas bog‘liqdir. Shu ma’noda yurtimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash ustuvor maqsad hisoblanadi. Bu borada ertamiz egalariga zarur sharoitlar muhayyo qilinayotir. Mazkur imkoniyatlardan oqilona foydalanayotgan yoshlar esa o‘z iste’dod va salohiyatlarini namoyon etib, yuksak natijalarga erishmoqda. Go‘zallikni his etish ko‘nikmasi shakllantirish, avvalo, oilada tashkil etiladigan estetik tarbiyaning asosiy muhim omili sanaladi. Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya qizlarda go‘zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go‘zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg‘u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o‘rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Oila xonadonining bezatilishi, milliylik ruhi ufurib turishi, qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashi kabilarda ham estetik did shakllanib boradi. Oilada estetik qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishda ota-onalarini ta’til kunlarini samarali tashkil etishi, ta’til kunlarida tarixiy qadamjolarimizga ziyoratlarga olib borishi, tarixiy go‘zalliklarni o‘z ko‘zlarini bilan ko‘rishi va his qilishini ta’minlashi zarur. Qizlar juda yoshligidanoq sohta go‘zalliklar (yarim yalang‘och yoki yalang‘och badan, me’yordan ortiq qo‘llanilgan pardoz, ursfa kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli», o‘ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go‘zallikning timsoli emasligini anglab etishlari lozim. Go‘zallik yaratuvchi ijodkorlardan biri aytganidek, ijodkorning boshqa odamlardan farqi shundaki, u boshqalar fahmlay olmagan go‘zallikni hamma yerda ko‘ra bilish qobiliyatiga egadir. Qizlarda haqiqiy go‘zallikni his etish tuyg‘usi tabiat bag‘rida,

muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarda bo'lish tufayli shakllanadi. Tarbiya jarayoniga mas'ul insonlar ya'ni farzandning ota-onasi uning qanday musiqa tinglashi, qanday film yoki multfilmlarni tomosha qilishi, qanday o'yinchoq o'ynashlarida befarq, loqayd bo'lmasliklari lozim va bu borada asosiy tavsiyachi vazifasiga fidoiylik bilan yondashuvi davr talabi sanaladi. Estetik tarbiyani farzand tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrimizni nurlantirmoq, ahloqimizni go'zallashtirmoq, zehnimizni ravshanlanmoq demakdir Qizlar tarbiyasida u yashab turgan sharoit, muhit kishilarning faoliyati katta o'rinni tutadi va bu sohada oila, maktab sharoiti ham katta e'tiborga molikdir. O'zbek oilalarida qizlarni tarbiyalashda quyidagi masalalarga e'tiborni qaratmoq lozim:

1. Qizlarga yoshligidanoq o'zbek urf-odatlarini va udumlarini singdirib borish.
2. Avvalo ona, qolaversa, ota qiziga har jihatdan o'rnak bo'lishi lozim
3. Oilada ayollar o'rnini, vazifasini, burchini, huquqini tushuntirib borish.
4. Oilada ayollar zimmasidagi yumushlarni puxta o'rgatib borish.
5. Qizlarning savollariga, tushunmagan narsalari bo'yicha so'rovlariga shoshilmay, mukammal javob berish.
6. Ortiqcha erkalatmaslik, ranjitmaslik, ayniqsa, yomon so'zlar bilan haqoratlamaslik kerak.
7. Qarindosh-urug', mahalla-kuydag'i obro'-e'tiborli oilalarning ayollarini, qizlarini na'muna qilib ko'rsatib borish.
8. Qiz bolaga ota-oni, aka-ukalar tomonidan zulm o'tkazmaslik.
9. Noto'g'ri ishi, hatti-harakatini tushuntirib, yengil koyish bilan birga yaxshi ishlarini rag'batlantirib borish.
10. Yoshi ulg'aya borgan sari qiz bolaga turmush, oila, turmush o'rtog'i, unga munosabat, farzand parvarishi va tarbiyasi masalasida bosqichma-bosqich tushuncha berib borish.
11. Qiz bolaning adabiyotga, san'atga, she'riyatga havasini orttirib borish.
12. Odob-axloq, sharm-hayo, ibo, muloyimlik, yurish-turish va kiyinish madaniyati, tejamkorlik, sabr-toqatli bo'lish masalalarida tushuncha berish.

Qizlar özida yaxshi kelajak qurish uchun , jamiyatda foydasi tegadigan inson va kadr qilish uchun ota - onalar juda katta mehnat qilishadi. Qizlarimiz universitetiga kirib ,talaba bòlishgach ularga ham tarbiyaviy tomondan darslar beriladi. Òzbek qizlari iffatli va or-nomusini birinchi òrinda tutadigan eng tarbiyali qizlardir. Talaba qilarimiz òrtasida ham kòpgina bellashuvlar va tabdirlar òtkazilib boriladi. Har bir qiz kelajakda ona, rafiqqa bòladi. Yaxshi,bilimli va tarbiyali yoshni tarbiyalashi uchun òzi uqqan va òqigan bòlishi shart. Bizning òzbek ayollarimizning hamma havas qiladigan fazilatlari judayam kòp. Buni esa qizlariga ham òrgatishi nur ustiga a'lo bòladi ,menimcha. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga,

kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i ekanini tan olishimiz darkor.” - deb ta’kidlagan so‘zlar negizida insonning ekologik madaniyat va tasavvurini boyitishda oilaning o‘rni ahamiyatini ko‘rsatganlar.. Talaba qizlarda milliy qadriyatlarimizga, jumladan, oilaviy an'analar, noyob rasm-rusmlarga oid e’tiqodni shakllantirish orqali ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaparvarlik xususiyatlarini tarbiyalash tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiruvchi ta’sirchan vositalardandir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, oilada o‘rganilgan hunar qizlarda estetik qadriyatlarni bardavomligi, sir-asrorlarini avloddan avlodga o‘tishini ta’minlaydi. Masalan, hududlar kesimida oladigan bo‘lsak Buxoro zardo‘zligi, Navoiy viloyati Nurota tumani kashtachiligi, Farg‘ona do‘ppilar, Chust pichoqlari kabi o‘zining davom etib kelayotgan qadriyatlari bilan mashxur. Farzand qaysi kasb egasi bo‘lmisin bu qadriyatlар uni hayoti davomida as qotadigan hunar bo‘lib qoladi. Ayniqsa, xotin-qizlarimiz oilasida, farzand tarbiyasida bu qadriyatlар zarurdir. Zeroki, hunarli kishi xor bo‘lmas, “Epli kelin, sepli kelin” kabi xalq maqollarimiz bejizga aytilmagan. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, qizlar yoshligidan ya’ni oilaviy jarayonlarda shuningdek maktabgacha ta’lim muassasalarida, oliy o‘quv yurtlarida qizlarni go‘zallikkaga nisbatan ongli munosabatni tarbiyalash va bu borada milliy va umuminsoniy qadriyatlар asosida ta’limga ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvni tadqiq qilish muhum hisoblanadi. Qizlar kelajakni qanday yo‘sinda ketishida ulkan xissa bor. Ayniqsa, hozirgi davrda talaba qizlar uchun qator sharoitlar yaratib berilmoqda. Eng bilimli talaba qizlarimiz har xil stipendiyalar va har xil mukofotlar orqali rag’batlantirishmoqda. Har jabhada uzini ko‘rsata bilgan qizlarimiz esa ”Zulfiya” mukofoti bilan taqdirlanib bormoqda. Insonning mehnati qadrlangan har joyda yukslish va o’sish bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Xasanboyeva O. “Oila pedagogikasi”. Toshkent: “Aloqachi” 2007.- 312 b.

2.Matriqzamin. Hikmat bo’stoni (to’plam). Toshkent: “Sharq” 1997.- 242 b.

3. <https://iiau.uz/oz/news/2048>

4.file:///C:/Users/user/Downloads/boshlang-ich-ta-lim-yo-nalishidagi-talaba-qizlarni-oilaga-tarbiyalashning-pedagogik-ahamiyati.pdf

5. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o‘quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzlucksizlik. М УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b
<https://lib.espi.uz/index.php?newsid=7951>

5. Usmonova Q.S. Boshlangish ta`limda Filandiya ta`lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b

6 – TOM 10 – SON / 2023 - YIL / 15 - OKTYABR

6. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s

7. Usmonova Q.S. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching . Diversity Research: Journal of Analysis and Trends . Volume 1, Issue 5, August 2023 . 27-29 s